

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

JORAI

Journal of


RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

Volume I, Issue 8



IMFAKTOR
PAGES

AUGUST | 2023

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 8-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-8

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-8

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 8 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-8>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

Камалова Д. Э. – филология фанлари бўйича фалсафа доктори
Муhibaова У. – филология фанлари доктори, профессор
Рашидов Т. – санъатшунослик фанлари номзоди, доцент
Тешабоев Ж. – санъатшунослик фанлари доктори, профессор
Эгамбердиев И. – техника фанлари доктори, профессор
Ташманов Е. – техника фанлари доктори, профессор
Салихова О. – техника фанлари номзоди, доценти
Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор
Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент
Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор
Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори
Камалова Дильфуза
Энуаровна – филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Чоршанбиев Шухрат
Махматмуродович – техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
доцент
Нематов Эркинжон – техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ҳамроевич доцент

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни **№ 054912**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.1** “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади**.

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

HAЙITOVA Mahliyo Ilhom qizi
Samarqand davlat universiteti
tadqiqotchisi

MAHMADIYEV Shavkat Suyunovich taqrizi asosida
Samarqand davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti
filologiya fanlari nomzodi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.82276426>

О‘ЗБЕК ТИЛИ МИЛЛИЙ-МАДАНИЙ СЕМАСИДА “СУВ” ЛЕКСЕМАНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

ANNOTATSIYA

Yangi davr tilshunosligining yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiya fan sifatida XX asrning ikkinchi yarmi oxirlariga kelib shakllana boshladi. Tilshunoslikda esa XX asrning oxirlariga kelib “til madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki uning o‘zi madaniyatdan o‘sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir” degan qarash mustahkam o‘rin egallay boshladi. Ayni paytda til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi (matnlar ko‘rinishida) va uning tarkibiy qismidir. Chunki til vositasida madaniyatning moddiy va ma‘naviy manbalari yaratiladi. Ana shu g‘oya asosida ming yillar davomida shakllangan lingvokulturologiya fanning yangi, maxsus sohasi sifatida XX asrning 90-yillarida rasman vujudga keldi. Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi eng yangi nazariyalardan biri bo‘lgan antroposentrik paradigmaning mahsuli bo‘lib, u so‘nggi o‘n yilliklar davomida shiddat bilan rivojlanib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, lingvokulturologiya, til madaniyati, til madaniyatning yaratilishi, til vositasida madaniyatning moddiy va ma‘naviy manbalari, o‘zbek tili, “suv” leksemasi, antroposentrik paradigma.

ВЫРАЖЕНИЕ ЛЕКСЕМЫ "ВОДА" В НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ СИММЕТРИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

АННОТАЦИЯ

Лингвистика, являющаяся одним из ведущих направлений языкознания нового времени, начала формироваться как наука в конце второй половины XX века. В языкознании к концу XX века прочное место стало занимать мнение о том, что «язык не связан с культурой, а является орудием, вырастающим из культуры и выражающим ее». На данный момент язык является средством создания, развития, сохранения (в виде текстов) и его составной частью культуры. Потому что через язык создаются материальные и духовные источники культуры. На основе этой идеи формировавшийся тысячелетиями лингвокультурализм был официально создан в 90-х годах 20 века как новая, особая область науки. Лингвистика является продуктом антропоцентрической парадигмы, одной из новейших теорий в языкознании, бурно развивающейся в последние десятилетия.

Ключевые слова: языкознание, лингвокультурология, языковая культура, язык-создание культуры, материальные и духовные источники культуры через язык, узбекский язык, лексема “вода”, антропоцентрическая парадигма.

EXPRESSION OF THE LEXEME "WATER" IN THE NATIONAL-CULTURAL SYMMETRY OF THE UZBEK LANGUAGE

ANNOTATION

Linguistics, which is one of the leading areas of new era linguistics, began to form as a science at the end of the second half of the 20th century. In linguistics, by the end of the 20th century, the view that "language is not related to culture, but is a tool that grows out of culture and expresses it" began to take a strong place. At the moment, language is a means of creation, development, preservation (in the form of texts) and its component of culture. Because material and spiritual sources of culture are created through language. On the basis of this idea, linguo-culturalism, which has been formed for thousands of years, was officially created in the 90s of the 20th century as a new, special field of science. Linguistics is a product of the anthropocentric paradigm, one of the newest theories in linguistics, which has been developing rapidly over the last decades.

Keywords: linguistics, linguoculturology, language culture, language the creation of Culture, material and spiritual sources of culture through language, Uzbek language, lexeme "water", anthropocentric paradigm.

XXI asrning boshlariga kelib lingvomadaniyatshunoslik jahon tilshunosligidagi eng yetakchi sohalardan biriga aylandi. Lingvokulturologiya xalq tilida va diskursda o'z ifodasini topgan va mustahkam o'rin egallagan xalq madaniyatini, urf-odatlarini o'rganadi. U birinchi navbatda, muayyan madaniyatning mif, afsona, rasm-rusum, an'ana, udum, taomil, ramzlarini va hokazolarni tadqiq etadi. Yuqorida sanab o'tilgan konseptlar bevosita madaniyatga taalluqli bo'lib, ular tilda maishiy va taomil muomalasi shaklida mustahkamlanadi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "lingvokulturologiya" termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan [1].

V.N. Teliyaga ko'ra, lingvokulturologiya, avvalo, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda qo'llaniladigan til ifodalarning sinxron harakatdagi xalq mentaliteti bilan aloqasini tadqiq qiladi.

Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. Binobarin, V.N. Teliya bu haqda shunday yozadi: "Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir" [1].

G.G. Slishkinga ko'ra, "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i, insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi" [2]. Lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish manbasi haqidagi qarashlar borasida bir to'xtamga kelingan bo'lsa ham, ayrim muammoli jihatlarlar ham yo'q emas. Masalan, N.Teliyaning fikriga ko'ra, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganadi. V.A.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'rganadi, deb hisoblaydi.

Lingvokulturologiyaning paydo bo'lishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi Vilgelm fon Gumboltga borib taqalishini ta'kidlaydilar. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysberger, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyuan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi [1].

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi, xususan, rus tilshunosligidagi eng yetakchi sohalardan biriga aylanib ulgurdi. Bu borada ko'plab tadqiqot ishlari qilindi, monografiyalar yaratildi, yuzab ilmiy maqolalar e'lon qilindi, bir qancha o'quv qo'llanmalari chop etildi.

Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi. Mazkur o'quv qo'llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, obyekti va predmeti, yo'nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan.

Bir qator tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, lingvomadaniyatshunoslik tilni madaniyat asosi sifatida o'rganuvchi soha bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini, o'rganish obyekti tashkil etadi. Lingvokulturologiya alohida fan sohasi sifatida shakllanishi bilan uning metodologiyasi, tadqiqot usullari, metodlari ham ishlab chiqildi.

Fan doirasida so'nggi yillarda eng keng qo'llanayotgan tahlil metodi sifatida assotsiativ metodi ko'rsatishimiz mumkin. Chunki til birliklarini assotsiativ tahlil metodi asosida o'rganishga kun sayin qiziqish ortib bormoqda. Akademik Azim Hojiyev tomonidan yaratilgan "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da "assotsiativ" so'ziga shunday ta'rif beriladi: "Assotsiatsiya – til birliklarining shakli yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko'ra o'zaro birlashuvi" [4]. Til birliklarini bu tizim asosida tadqiq etish jarayonida insonning psixologik-ruhiy tasavvuri va uning til sistemasida aks etishi borasida bir-biridan qiziqarli ma'lumotlar qo'lga kiritildi.

"Assotsiativ tahlil usuli til birliklarining inson tafakkuri, xotirasi, leksik zaxirasi kabi omillar bilan bog'liq tomonlarini o'rganishda muhim o'rin tutdi. Ayniqsa, har bir xalqqa xos milliy-madaniy o'ziga xosliklarning tilda aks etishi muammosini o'rganishda assotsiativ tahlil metodidan foydalanish o'z samarasini ko'rsatdi" [5].

Ma'lumki, yangi mazmunli matn yaratilishida tildagi so'zlarning o'zaro assotsiativ bog'lanishi nihoyatda muhim o'rin tutadi. Ya'ni tildagi so'zlarning assotsiativ munosabati evaziga matn mantiqiy-semantik jihatdan shakllanadi, tarkib topadi. Jumladan, milliy-madaniy semali til birliklari ham matn tarkibida shunday xarakterga ega bo'lgan, milliy koloritni ifodalaydigan til birliklari bilan assotsiativ birikib, milliy ruhni o'zida aks ettiradi. Ushbu bobimizda respondentlar orasida o'tkazilgan "suv" leksemasi assotsiyalarining lingvistik xususiyatlari haqida fikr yuritimiz.

"Suv" leksemasi bo'yicha o'tkazilgan assotsiativ tajribada jami 418 ta javob reaksiyasi olindi. Tajriba natijalari asosida "suv" leksemasining assotsiativ maydoni quyidagicha tarkib topdi: jami javob reaksiyalari 418 ta, turli javob reaksiyalari 258 ta, yakka assotsiatsiyalar miqdori 160 ta.

"Suv" leksemasi assotsiativ maydonining yuqori chastotali birliklari quyidagilardan tashkil topadi: ichimlik (2), daryo (6), dengiz suvi (11), okean (4), ariq (3), ko'l (4), irmoq (3), hovuz (3), suv ombori (3), suyuqlik (2), obi hayot (3), suv hayot manbayi (4), ko'm-ko'k ummon (3), toza va zilol ichimlik (4), qishlog'im (2), non (3), yomg'ir (2), o'simlik (5), suzish (6), salqinlik (8), tiniqlik (7), tiniq (7), suyuq (3), shirin (3), bahor fasli (9), tomchi (6), favvora (9), sharshara (9), toza ichimlik (7), ichadigan narsa (6), tozalik (7), hayot (7), rangsiz (3), ta'msiz (5), yashashlik (9), kursdoshlarim (2), yig'laganim (3), ko'z yosh (5), umr (3), mo'l hosil (2), dala (3), muz (3), chanqoqni qondirish (7), sahra (3), tegirmon (6), buloq suvi (9), qaynar buloq (4), bulut (3), umr (4), to'fon (2), sel (3), girdob (3), Darg'om (2), Zarafshon (2), Venetsiya (6), sumalak (7), suv parisi (3). Qolgan 160 ta assotsiatsiya turtki so'zga yakka holda berilgan javob reaksiyalari hisoblanadi. Assotsiativ maydondan o'rin olgan javob reaksiyalarining eng yuqori chastotali birliklari 11 holatda so'z birikmasi ko'rinishida, qolgan barcha holatlarda esa leksema ko'rinishida olindi. Gap ko'rinishidagi javob reaksiyalari uchramadi.

"Suv" leksemasi asosida shakllangan ibora, maqol, o'xshatish va marosim nomlari so'ralganda esa quyidagicha assotsiativ ko'rsatkich qabul qilindi:

Tarkibida suv so'zi ishtirok etgan maqollar: Suvni ko'rmasdan etik yechma (2), Inson do'stsiz ko'karmaydi, daraxt – suvsiz (1), Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q (5), Suv keldi – nur keldi (7), Suv - obi hayot (7), Oqqan daryo oqaveradi (5), Yurgan daryo – o'tirgan bo'ya (3), Ummon oldida tursang ham bir tomchi suvni uvol qilma (5), Oqar suvning qadri yo'q (2), Oqqan daryo oqmay qolmas (2), Yaxshilik qil suvga sol, bilsa baliq, bilmasa xoliq (5), Dunyoni suv bossa, o'rdakka ne g'am (3), Toma-toma ko'l bo'lur, Hech tommasa cho'l bo'lur (2), Ariqni suv bezar, Odamni – mehnat (1), Yer – xazina, suv – gavhar (3), Suv hayot manbayi (9), Suvsiz hayot yo'q (3), Do'st do'stga boqar, suv soyga oqar (2), Oshning ta'mi tuz bilan, suvning ta'mi muz bilan (3), Birov suv topolmaydi ichgani, Birov suv topolmaydi kechgani (2).

“Suv” leksemasi asosida shakllangan iboralar: Suvdek serob bo‘lmoq (3), sochidan suv o‘g‘irib ichsa arziydi (2), suv tekin (6), qo‘ltig‘iga suv purkamoq (1), suvga oqizmoq (4), suvga tushsa omon chiqadigan (2), boshidan suv o‘g‘irib ichsa arziydi (2), ko‘ngli suvdek tiniq (2),

Suv bilan bog‘liq o‘xshatishlar: ko‘z yoshi (7), bir tomchi suvdek (6), tog‘lardan oqib kelayotgan suv suzuk qizga o‘xshatilgan (1), suv quygandek jimjit (4), ikki tomchi suvdek o‘xshash (3), o‘tkinchi dunyo (5), inson umri (6), ko‘z yosh (5), ko‘z yoshlar suvga o‘xshash (1), rangi suvdek oqarib ketdi (2).

“Suv” leksemasi asosida paydo bo‘lgan marosimlar: “Sust xotin” (9), “Yomg‘ir chaqirish marosimi” (6), “Suv septi” (2), yomg‘ir yog‘ishi uchun kichkina kulcha nonlar yopish (1).

I. “Suv” leksemasining paradigmatic xususiyatlari: lug‘aviy ma‘nosi, semik tarkibi. Ma‘lumki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da suv so‘ziga berilgan ta‘rifda aks etgan ma‘no assotsiativ maydonda quyidagicha voqelanadi: suyuqlik, toza va zilol ichimlik, rangsiz, ta‘msiz, tiniq, suyuq. Assotsiativ maydonda “suv” leksemasi lug‘aviy ma‘nosi semalari quyidagi birliklar orqali voqelangan: ichimlik, obi hayot, toza ichimlik, ichadigan narsa.

Assotsiativ maydonda suv leksemasi quyidagi birliklar bilan paradigmatic munosabatga kirishadi:

- Sinonimik munosabat: Suv, obi hayot, ichimlik, toza va zilol ichimlik, toza ichimlik, ichadigan narsa;

- Uyadoshlik munosabati: Suv ombori, hovuz, daryo, ko‘l, okean, dengiz suvi, suzish, tomchi, ariq, soy, buloq suvi, qaynar buloq, chanqoqni qondirish;

- Tur-jins munosabati: suv, buloq, favvora, sharshara, dengiz suvi, buloq suvi, to‘fon, sel, girdob, muz, daryo – Zarafshon, Darg‘om;

- Butun-bo‘lak munosabati: okean – dengiz – ko‘l – suv ombori; daryo – soy – ariq – buloq – irmoq.

II. Assotsiativ maydon birliklarining grammatik-struktur belgilari. Suv leksemasi assotsiativ maydonida turtki so‘z + assotsiativ birlik munosabatida quyidagi aloqa turlari kuzatildi.

a) boshqaruv usuli. Bu usul chanqoqni so‘zi bilan sintagmatik bog‘langan qondirish so‘zi orqali hosil bo‘lgan.

b) moslashuv usuli. Bu usul buloq suvi, dengiz suvi, hayot manbayi kabi javob reaksiyalarida yaqqol kuzatiladi.

d) bitishuv usuli. Bu usul assotsiativ birliklar orasida eng ko‘p kuzatilgan sintagmatik munosabat bo‘ldi: ko‘m-ko‘k ummon, toza va zilol ichimlik, toza ichimlik, ichadigan narsa.

e) izofali birikma. Suv turtki so‘ziga olingan javob reaksiyalari orasida obi hayot izofali birikmasi assotsiativ birlik sifatida olindi. Yakka tartibda olinga assotsiativ birliklarni turkum jihatidan quyidagicha tasniflashimiz mumkin: Ot so‘z turkumi. Turdosh otlar: bulut, umr, tegirmon, sahro, irmoq, hovuz, muz, tomchi, buloq suvi, bahor fasli, tiniqlik, salqinlik sumalak; Atoqli otlar: Zarafshon, Darg‘om, Venetsiya; Sifat so‘z turkumi: tiniq, toza, zilol, suyuq, rangsiz, ta‘msiz, ko‘ngli suvdek tiniq, suv tekin, suvga tushsa butun chiqadigan; Fe‘l so‘z turkumi: suzish, boshidan suv o‘g‘irib ichsa arziydi, qo‘ltig‘iga suv purkamoq, suvday serob bo‘lmoq, rangi suvdek oqarmoq, suvga oqizmoq;

Assotsiativ maydonda struktur jihatidan quyidagi birliklar o‘rin olgan: sodda so‘z shaklidagi assotsiatsiyalar: daryo, dengiz, ko‘l, irmoq, hovuz, tozalik, salqinlik, tiniqlik, suzish, muz, sumalak, Zarafshon, Darg‘om; birikma shaklidagi assotsiatsiyalar: ichadigan narsa, toza va zilol ichimlik, dengiz suvi, buloq suvi, hayot manbayi; qo‘shma so‘z shaklidagi assotsiatsiyalar: suv ombori; gap ko‘rinishidagi assotsiatsiyalar: Suv keldi – nur keldi, Yer – xazina, suv – gavhar, Suv hayot manbayi, Suvsiz hayot yo‘q, Do‘st do‘stga boqar, suv soyga oqar, Oshning ta‘mi tuz bilan, suvning ta‘mi muz bilan, Birov suv topolmaydi ichgani, Birov suv topolmaydi kechgani. Gap ko‘rinishidagi assotsiatsiyalar asosan barqaror birikmalar – maqollar tarkibida uchradi.

III. Assotsiativ maydon birliklarining derivatsion xususiyatlari. Qo‘lga kiritilgan assotsiativ birliklar orasida aynan suv leksemasi asosida yasalgan yangi ma’noli so‘zlar ko‘p ham uchramadi. Lekin olingan javob reaksiyalari orasida derivatsion so‘zlar borligi kuzatildi: chanqa+q=chanqoq (-ni qondirish), salqin+lik= salqinlik, suyuq+lik=suyuqlik, toza+lik=tozalik, ta‘m+siz=ta‘msiz, rang+siz=rangsiz, yig‘i+la=yig‘la(ganim), kurs+dosh=kursdosh(larim). Faqatgina “Inson do‘stsiz ko‘karmaydi, daraxt – suvsiz” maqoli tarkibida suv leksemasining aynan derivatsiyasi kuzatildi.

Umuman olganda, suv stimul so‘zi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rov natijalari asosida quyidagi xulosalarni bayon etish mumkin:

1) O‘zbek xalqining ong-u tafakkurida “suv” leksemasi milliy qadriyat sifatida muhrlangan va bu paremiologik birliklarda o‘z aksini topgan.

2) Muloqot tili o‘zbek tili bo‘lgan yoshi, jinsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar barcha insonlar suv borasida bir xil tasavvur va fikrga ega.

3) O‘zbek xalqi milliy madaniy ongida suv, asosan, yerdagi hayotning asosi sifatidagi obraz ko‘rinishida ifoda topgan.

4) “Suv” leksemasining assotsiativ maydoni til egalarining suv bilan bog‘liq obrazli tasavvurlari, xalq donishmandligi durdonalari, qadimiy marosimlari va suv so‘zi asosida shakllangan o‘xshatishlari haqida yetarlicha ma’lumot bera oladi.

5) Barqaror birikmalarning deyarli barchasi suv so‘zining o‘zbek xalqi milliy-madaniy ongida ijobiy obraz sifatida saqlanib kelayotganligini ko‘rsatadi.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Худайберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.31
2. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.
3. Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. –М.: Издательский центр «Академия», 2000.
4. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Б. 19.
5. Лутфуллаева Д. Тожибоев Б. Ўзбек тилида миллий маданий ассотсиатив бирликлар // 2018, №3. –Б.43-48.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 8-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-8

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-8

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz